

mehr-oqibat ifodalanadigan bo'lsa, nemis tilida bu jarayon ko'proq ijtimoiy konvensiyalar, tinglovchiga bo'lgan individual e'tibor va shaxsiy fikrlar bilan bog'liq. O'zbek tilida ko'pincha konnotativ (yashirin) ma'no vositalariga tayaniladi: kinoya, ijobiy niyatli tanqid, ijozat so'rash kabilar norasmiy va rasmiy uslublarda ham mavjud. Nemis tilida esa ekspressivlikdan ko'ra ratsionallik, yaqqol semantik struktura afzal ko'riladi.

Sotsiopragmatik jihatdan, o'zbek oilalarida kommunikatsiyaning kontekstga bog'liqligi kuchli — ya'ni muloqotdan oldin va keyin beriladigan izohlar, oraliq iboralar (masalan, "Menga bir oz qarang...", "Ko'nglimga og'ir botmasin...") vositasida yuzaga keladigan nutqiy strategiyalar kommunikativ vaziyatni yumshatish va ehtirom ifodalashga qaratilgan. Nemis oilalarida esa muloqotning kontekstdan mustaqilligi, ya'ni aytilgan gapning o'zini yetarli deb hisoblash holatlari tez-tez uchraydi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan, o'zbek tilida nutqiy etiket oilaviy tarbiya vositasi sifatida xizmat qilsa, nemis tilida u bolaga ijtimoiy mustaqillikni singdirishning muhim vositasidir.

Shunga ko'ra, ikki jamiyatning til va madaniyat tizimlarida nutqiy etiketning o'rni, shakllanishi va qo'llanishidagi farqlar tilshunoslikda alohida o'rganilishi lozim bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va nemis tillarida nutqiy etiket tizimlari faqat til vositalari orqali emas, balki har ikki jamiyatning madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari orqali shakllanadi. O'zbek oilasida hurmat, kamtarlik va muloyimlik asosiy mezon bo'lsa, nemis oilalarida ochiqlik, shaxsiy fikrga hurmat va muloqotdagi aniq pozitsiyalilik ustuvorlik qiladi. Ushbu tafovutlar til o'rgatishda va madaniyatlararo kommunikatsiyada e'tiborga olinishi lozim bo'lgan muhim omillardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N., Rasulov Sh., Jo'rayev N. O'zbek tili stilistikasi. — Toshkent: Fan, 2007.
2. Bozorov M. Qiyosiy tilshunoslik nazariyasi. — Samarqand: SamDU, 2021.
3. Kasper G., Blum-Kulka S. Interlanguage Pragmatics. — Oxford: OUP, 1993.
4. House J. Politeness in Germany: Politeness in Context. — Cambridge: CUP, 2010.
5. Thomas J. Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics. — London: Longman, 1995.
6. Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. — Berlin: Mouton de Gruyter, 2003.
7. Sayfiyev H. Sociolingvistika asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2012.

XADICHA SULAYMONOVA- HUQUQSHUNOSH AYOLLAR MAKTABI

Kumushoy Ro'zimboyeva

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti, 3-bosqich talabasi

Rozimboyevakumush34@gmail.com

"Sud-mustaqilligini talab qilish – bu nafaqat sudyalarning orzusi, balki insonning konstitutsiyaviy huquqi hisoblanadi, chunki aynan mustaqil sudya har bir shaxsning ishi bo'yicha xolis va adolarli qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi"

Xadicha Sulaymonova.

O'zbekistondagi "Ilk huquqshunos ayol" bo'lishdek ulkan faxrli maqomga ega bo'lgan o'zbek ayoli Xadicha Sulaymonovaning hayot yo'li nafaqat bo'lajak yurist ayollar uchun, balki o'z kelajak sohasini chuqur egallash ostonasida turuvchi barcha yoshlar uchun ibrat maktabidir. Xadicha Sulaymonova 1913-yil ziyolilar oilasida dunyoda kelib, ko'plab kerakli qobiliyatlarni oilasi davrasida ravnaq toptirdi. Otasi Sulaymon Kelginboyev karvonsaroyda ishlashiga qaramasdan, ko'plab tillarni bilar va shu sababli ham farzandlarining ta'limiga alohida e'tibor qaratgan. Yosh Xadicha rus maktabida ta'lim oldi. Ammo bu unga umuman salbiy ta'sir ko'rsatmasdan, aksincha, Xadicha maktab davridayoq o'zining o'tkir zehni bilan boshqa tengdoshlaridan ajralib turgan. Xadicha Sulaymonova kelajakda yurist bo'lishga 17 yoshida qaror qildi. Bunga esa o'sha vaqtdagi Tojixon Shodiyevaning qoralovchi sifatida kuchli qat'iyati sabab bo'lgan.

Maktabni ta'monlagandan so'ng, Xadicha Sulaymonova **Sovet qurilishi va huquq ilmiy tadqiqot institutining tayyorlov kursida o'qiy boshladi. Bir yildan keyin Toshkentda tashkil etilgan Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilish va huquq institutining ikkinchi kursiga o'qishga qabul qilinadi.** U yerda ham o'qishni muvaffaqiyatli yakunlaydi. Xadicha Sulaymonova o'zining ilk kasbini 1935-yilda yigirma ikki yoshda Sudyalikdan boshladi. Huquq olamida, umuman olganda har kim o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi uchun hech qachon o'z ustida izlanishdan, ilm olishdan to'xtamasligi kerakligi yaxshi his qilgan. Shu sababli Xadicha Sulaymonova 1938-yil Moskva yuridik instituti sovet jinoyat huquqi kafedrasini aspiranti bo'ldi. Xadicha Sulaymonova shu qadar ilm olishga chanqoq inson bo'lganki, undagi ziyraklik hatto SSSR Bosh prokurori R.A. Rudenkoni ham qoyil qoldiradi. "Bunchalik chuqur bilimga ega o'zbek qiziga men tan berdim" - deb aytgan so'zlari bunga dalildir. Xadicha Sulaymonova Adliya vaziri, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, Kommunistik partiya a'zosi, Yuridik komissiya raisi, O'zbekiston Oliy Sovet deputati, O'zbekiston Oliy sud raisi sifatida o'zbek xalqiga chin dildan xizmat qildi.

Xadicha Sulaymonova barcha yuristlar havas qilishi kerak bo'lgan hayotida, nafaqat o'z kasbiga chuqur sadoqatli bo'ldi, balki o'zidan yirik hajmga ega ilmiy meros ham qoldirdi. Jumladan, Xadicha Sulaymonova bir qancha ilmiy maqolalar, o'zi boshchiligidagi Falsafa va